



## SUT BEZI KASALLIKLARI DIAGNOSTIKASIDA SO'RG'ICH AJRALMASINI SITOLOGIK TEKSHIRISHNING AHAMIYATI

*Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti*

*Nishonova Yulduz Xatamovna, Nurillayeva Pokizaxon Farxod qizi*

**Anotatsiya.** Sut bezi kasalliklari, xususan ayollarda surg'ich ajralmasi, uchinchi eng ko'p uchraydigan simptomlardan biridir va diagnostikani talab qiladi[1]. Sitologik tekshiruv orqali hujayralar holati aniqlanadi, bu esa kasallikni ajratishga va klinik qarorlar qabul qilishga yordam beradi[2]. Qonli yoki qonga aralashgan ajralma bo'lgan bemorlarda xavfli o'sma kasalligi ehtimoli yuqoriroq bo'ladi[4]. Sitologiya boshqa diagnostik metodlar bilan birga qo'llanganda klinik qarorlarni aniq va samarali bo'ladi[2].

**Kalit so'zlar.** So'rg'ich ajralmasi, sitologiya, sut bezi kasalliklari diagnostikasi.

**Tadqiqot maqsadi.** Sut bezi kasalliklarini erta aniqlashda so'rg'ich ajralmasini sitologik tekshirishning diagnostik ahamiyatini baholash.

**Material va metodlar.** Tadqiqot 2024-2025-yillarda Toshkent shahridagi RIO va RIATM TVF markazlarida olib borildi va namuna sifatida ko'krak uchidan ajralma olingan bemorlar tanlandi. Ajralmalar qonli, seroz yoki seroz-qonli turdagi bo'lishi mumkin edi va bemorlar yoshi 25-70 oralig'ida belgilandi. Namuna ko'krak uchidan steril shprits yordamida to'plandi. Olingan ajralma mikroskopik slaydlarga sepilib, maxsus bo'yoqlar bilan bo'yaldi. Hujayralar tarkibi, patologik o'zgarishlar va xavfli o'sma belgilariga qarab natijalar baholandi. Shu bilan birga, xavfli o'sma kasalliklarni aniqlashdagi sezgirlik, maxsuslik ko'rsatkichlari statistik tahlil qilindi.



**Natija.** Sitologik tekshiruv natijalariga ko'ra, 78 nafar ayol bemorda ko'krak uchidan olingan ajralmada hujayralarning holati aniqlandi. Shulardan 32 nafar bemorlarda normal hujayralar, 15 nafarida yallig'lanishli edi, 9 nafarida atipik hujayralar kuzatildi va 12 nafar bemorda xavfli o'sma hujayralari aniqlandi. Atipik hujayralar aniqlangan 9 nafar bemorda hujayralarning morfologik tuzilishida ma'lum darajadagi o'zgarishlar kuzatildi. Bunda hujayra yadrosining kattalashishi, yadro–sitoplazma nisbatining oshishi, xromatinning notekis taqsimlanishi hamda hujayralar shaklining polimorfizmi qayd etildi. Ushbu o'zgarishlar to'liq xavfli jarayonga xos bo'lmasa-da, patologik proliferatsiya ehtimolini ko'rsatadi va klinik jihatdan shubhali guruh sifatida baholanadi. Patologik belgilar aniqlangan barcha bemorlarga qo'shimcha diagnostik tekshiruvlar — ultratovush tekshiruvi, mammografiya hamda biopsiya o'tkazish tavsiya etildi. Meta-tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, sut bezi sitologik diagnostik sezgirliги 63 % va maxsusligi 82 % bo'lishi qayd etildi. Shu bilan birga, sitologik tekshiruv minimal invaziv bo'lib, jarrohlik aralashuvisiz hujayralarni baholash imkonini berdi va boshqa diagnostik usullar bilan birgalikda ishlatilganda kasallikni aniqlashdagi aniqlik oshdi.

**Xulosa.** So'rg'ich ajralmasining sitologik tekshiruvi sut bezi kasalliklarini aniqlashda muhim diagnostik usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usul orqali ajralmadagi hujayralarning morfologik holati baholanib, normal, yallig'lanishli, atipik hamda xavfli o'zgarishlarni aniqlash mumkin. Tadqiqot natijalari sitologik tekshiruv ayrim bemorlarda atipik va xavfli o'sma hujayralarini aniqlash imkonini berishini ko'rsatdi. Ayniqsa, qonli yoki qonga aralash ajralma kuzatilgan holatlarda xavfli jarayon ehtimoli yuqoriroq ekanligi qayd etildi. Sitologik tekshiruv minimal invaziv, tez va qulay bajariladigan diagnostik usul bo'lib, bemorga ortiqcha jarrohlik aralashuvisiz hujayraviy o'zgarishlarni baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, uni ultratovush tekshiruvi, mammografiya va biopsiya kabi boshqa diagnostik usullar bilan birgalikda qo'llash kasallikni aniqlash aniqligini oshiradi. Shunday



qilib, so‘rg‘ich ajralmasining sitologik tahlili sut bezi kasalliklarini, xususan sut bezi saratonini erta aniqlashda muhim, samarali va amaliy ahamiyatga ega diagnostik usul hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Cabioglu N., Hunt K. K., Singletary S. E. et al.

Surgical decision making and factors determining a diagnosis of breast carcinoma in women presenting with nipple discharge.

Journal of the American College of Surgeons, 2003.

2. Duffy M. J.

Serum tumor markers in breast cancer: Are they of clinical value?

Clinical Chemistry, 2006.

3. Harris L., Fritsche H., Mennel R. et al.

American Society of Clinical Oncology 2007 update of recommendations for the use of tumor markers in breast cancer.

Journal of Clinical Oncology, 2007.

4. Orell S., Sterrett G., Walters M., Whitaker D.

Fine Needle Aspiration Cytology.

Churchill Livingstone, 2012.